

## MATBUOT XABARI



**GOETHE  
INSTITUT**

Sprache. Kultur. Deutschland.

### Alp shoxi bilan muloqot – Toshkent va Samarqand shaharlarida konsert turnesi



**Toshkent, 2024-yil 25-sentabr** – Oktyabr oyi boshida Gyote-Instituti tomonidan tashkil etiladigan "Alphorn Dialog" konsert gastrol bo'lib o'tadi. Jaz bastakori va guruh boshlig'i Mattias Shrifel o'zining „Amithias“ guruhi bilan ikkita shaharda o'zbek orkestr musiqachilari bilan birgalikda uchta konsert dasturida ishtirok etadi. Konsert turkumida nemis va o'zbek tog' musiqasi o'rtasidagi madaniy o'xshashliklarni yoritib beradi.

O'zlarining konsert gastrollari doirasida musiqachilar O'zbekistonda ham chiqish qilishadi. 4 oktabr kuni ular Toshkentdagi O'zbekiston Davlat Konservatoriyasiga tashrif buyurib, o'zbek orkestri sozandalari bilan birgalikda konsert beradilar. 6 oktyabr kuni Samarqand tog'lari va san'at galereyasida ham ikkita konsert bo'lib o'tadi.

„Amithias“ guruhining etakchi qo'shiqchilari kelib chiqishlari Janubiy Hindiston va Germaniyaning Allgau shaharlaridan bo'lib, jahon musiqasining qiziqarli aralashma turkumini yaratadilar. Ular dunyo musiqalari o'rtasidagi o'xshashliklarni o'rganib, o'zbek va nemis tog' musiqasi o'rtasidagi uyg'unliklarni o'zlarining konsert dasturlarida ko'rsatishni o'z oldilariga maqsad qilib qo'yishgan.

Konsertga kirish bepul.

**Konsert boshlanishi:** soat 19-00 da

#### **Muhim sanalar:**

**04.10.2024 - Toshkentdagi Davlat Konservatoriyasi / Shayxontohur tumani, Olmazor ko'chasi 1**

**06.10.2024 - Samarqanddagi Art Station Residency by Silk Road University Mahmud Kashgariy ko'chasi 85A**

#### **Matbuot uchun aloqa:**

Gulnoza Bazarova,  
Jamoatchilik bilan  
ishlash xodimi

Goethe-Institut Taschkent  
Amir Temur ko'chasi 42,  
100000 Taschkent  
gulnoza.bazarova@goethe.de  
Tel.:(+99878)1401494  
(+99878)1401470

Qo'shimcha ma'lumot va batafsil dastur:

[www.goethe.de/usbekistan](http://www.goethe.de/usbekistan)

O'zbekistondagi Gyote-Institutning Telegram va Instagram kanallari